

# CHO‘L HUDUDLARINING EKOTURISTIK SALOHIYATI VA UNI BARQAROR RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

**Kilicheva Dildora Ismailjonovna**

Qarshi davlat texnika universiteti, “Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi”  
kafedrasi katta o‘qituvchisi

**Annotatsiya.** Cho‘l hududlarining ekoturistik salohiyati, tabiiy va madaniy resurslari, shuningdek, ularni barqaror rivojlantirish va muhofaza qilish yo‘llari tahlil qilinadi. Cho‘l landshaftlari o‘zining noyob tuzilishi, flora va fauna xilma-xilligi, tarixiy yodgorliklari hamda rekreatsion imkoniyatlari bilan turizm uchun jozibadordir. Maqolada ekoturizmning tabiiy resurslarga ta’siri, ekologik muhofaza va mahalliy aholi iqtisodiyotiga foydasi ko‘rib chiqiladi. Shu bilan birga, GPS va transport vositalari yordamida hududlarga kirishning ortishi atrof-muhitga salbiy ta’sirini oshirishi mumkinligi ta’kidlanadi. Tadqiqot natijalari cho‘l hududlarida ekoturizmni barqaror boshqarish, biologik xilma-xillikni saqlash va mahalliy aholi bandligini oshirish muhimligini ko‘rsatadi.

**Kalit so‘zlar:** ekoturizm, cho‘l hududlari, turizm resurslari, landshaft, biologik xilma-xillik, rekreatsiya, barqaror turizm, apiturizm, agroturizm, barqaror turizm, madaniy meros

## ЭКОТУРИСТИЧЕСКИЕ РЕСУРСЫ ПУСТЫНЬ: ТИПЫ И КЛАССИФИКАЦИЯ

**Киличева Дилдора Исмаилжоновна**

Каршинский государственный технический университет, старший  
преподаватель кафедры «Экология и охрана окружающей среды»

**Аннотация.** В статье анализируется экотуристический потенциал пустынных районов, их природные и культурные ресурсы, а также пути их устойчивого развития и защиты. Пустынные ландшафты привлекательны для туризма

благодаря своей уникальной структуре, разнообразию флоры и фауны, историческим памятникам и возможностям для отдыха. Рассматривается влияние экотуризма на природные ресурсы, охрану окружающей среды и выгоды для местной экономики. При этом отмечается, что расширение доступа к районам с использованием GPS и транспортных средств может усилить негативное воздействие на окружающую среду. Результаты исследования указывают на важность устойчивого управления экотуризмом в пустынных районах, сохранения биоразнообразия и повышения занятости местного населения.

**Ключевые слова:** экотуризм, заповедные территории, туристические ресурсы, ландшафт, биоразнообразие, отдых, устойчивый туризм, агротуризм, агротуризм, устойчивый туризм, культурное наследие

## **ECOTOURISM RESOURCES OF DESERTS: TYPES AND CLASSIFICATION**

**Kilicheva Dildora Ismailzhonovna**

Karshi State Technical University, Senior Lecturer, Department of Ecology and Environmental Protection

e-mail: [k.d.i.77@mail.ru](mailto:k.d.i.77@mail.ru)

**Abstract.** This article analyzes the ecotourism potential of desert areas, their natural and cultural resources, and ways to sustainably develop and protect them. Desert landscapes are attractive to tourism due to their unique structure, diverse flora and fauna, historical monuments, and recreational opportunities. The impact of ecotourism on natural resources, environmental protection, and benefits for the local economy is examined. It is noted that increasing access to areas using GPS and vehicles may exacerbate negative environmental impacts. The study's findings highlight the importance of sustainable ecotourism management in desert areas, biodiversity conservation, and increased local employment.

**Keywords:** ecotourism, protected areas, tourism resources, landscape, biodiversity, recreation, sustainable tourism, agritourism, agrotourism, sustainable tourism, cultural heritage

**Kirish.** Cho‘l hududlari dunyo miqyosida o‘zining noyob tabiiy landshaftlari, biologik xilma-xilligi va boy tarixiy merosi bilan ajralib turadi. Qurg‘oqchil iqlimi, cheklangan suv resurslari va keng cho‘l tekisliklari ularni nafaqat ekologik, balki turistik nuqtai nazardan ham jozibador qiladi. So‘nggi yillarda ekoturizm butun dunyoda atrof-muhitni muhofaza qilish, mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirish va madaniy merosni saqlashning samarali vositasiga aylangan.

Cho‘l hududlarining ekoturistik salohiyati, tabiiy va madaniy resurslari, rekreatsion imkoniyatlari hamda ularni barqaror rivojlantirish va muhofaza qilish yo‘llari batafsil tahlil qilinadi. Shu bilan birga, ekoturizmning tabiiy resurslarga ta‘siri va mahalliy aholi uchun iqtisodiy foydasi ko‘rib chiqiladi, hamda hududlarni samarali boshqarish bo‘yicha tavsiyalar beriladi.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Cho‘l hududlari boshqa tabiiy hududlar (tog‘, o‘rmon va yaylov zonolari) bilan solishtirilib, ularning ekoturizm rivojidadagi o‘rni va farqlari aniqlashtirildi. Cho‘l landshaftlari, flora va fauna, rekreatsion faoliyat turlari hamda turizmning atrof-muhitga ta‘siri tavsifiy jihatdan o‘rganildi. Turizm oqimi, rekreatsion talab va iqtisodiy ko‘rsatkichlarga oid mavjud statistik ma‘lumotlar tahlil qilinib, umumiy xulosalar chiqarildi.

Tadqiqotning nazariy asosini ekoturizm va rekreatsiya geografiyasi sohasidagi ilmiy ishlanmalar tashkil etadi. Cho‘l hududlarining ekoturistik resurslarini aniqlashda quyidagi mezonlardan foydalanildi:

- tabiiy landshaft xususiyatlari
- biologik xilma-xillik
- tarixiy-madaniy meros

- rekreatsion imkoniyatlar

Choʻl hududlarining ekoturistik salohiyati. Choʻl hududlari koʻpincha qurgʻoqchil iqlimi va suv resurslarining cheklanganligi bilan tavsiflanadi. Biroq aynan shu xususiyatlar ularning turistik jozibadorligini oshiradi. Choʻl landshaftlari oʻzining keng hududlari, qum barxanlari, toshloq tekisliklari va oazislari bilan turizm uchun noyob manzara yaratadi.

Choʻl hududlarining ekoturistik salohiyati quyidagi omillar bilan belgilanadi:

1. Noyob landshaftlarning mavjudligi
2. Endemik oʻsimlik va hayvon turlari
3. Tarixiy va arxeologik yodgorliklar
4. Etnografik turmush tarzi
5. Ekstremal va sarguzasht turizmi imkoniyatlari

Choʻl hududlarida ekologik turizmni rivojlantirish mahalliy aholining iqtisodiy faolligini oshirish hamda tabiiy resurslarni muhofaza qilishga yordam beradi.

Ekoturizm va dam olish uchun kelgan odamlar koʻpincha atrof-muhitni buzadilar. Dam olish joyida toʻrt gʻildirakli transport vositalari, lager, piknik, piyoda yurish va sport kabi dam olish faoliyati uchun tobora koʻproq foydalanilmoqdalar bu esa atrof muhitning ifloslanish darajasini oshirib, zarar yetkazmoqda. Ilgari odamlar choʻlda adashib qolishdan qoʻrqishgan va faqat belgilangan yoʻllardan yurganlar. Hozirgi kunga kelib, GPS va navigatsiya texnologiyalariga asoslangan smartfonlar hamda transport vositalari yordamida uzoq choʻl hududlariga borishmoqda [1].

Togʻli hududlarda apiturizm, agroturizm, geologik va ilmiy turizmni rivojlantirish uchun qulay sharoitlar mavjud. SWOT tahlilga koʻra, bu hududlarda noyob tabiiy majmualar, boy biologik xilma-xillik, qulay iqlim, transport va mehnat resurslari ekoturizm uchun muhim ustunlik hisoblanadi. [2].

Choʻl ekoturistik resurslari turli xil boʻlib, turizm rivojida muhim oʻrin tutadi. Tabiiy boyliklarning xilma-xilligi ekoturistlar uchun jozibadorlik yaratadi:

tuzli tekisliklar, oltin qumtepalar va rang-barang tepaliklar betakror manzaralarni taqdim etadi. Shuningdek, shamol va suv eroziyasi natijasida shakllangan landshaftlar, flora va fauna muhim turistik resurs hisoblanadi. Biroq, ekoturizm tabiiy resurslarga ortiqcha bosim keltirib, yer degradatsiyasi va suv ifloslanishiga sabab bo'lishi mumkin [3].

Fauna va flora moslashuvchan bo'lsa-da, mahalliy turlar yashash uchun oziq-ovqat, suvga va yashash joylariga muhtoj bo'ladilar. Biologik resurslarni muhofaza qilish tabiiy tanlanish va moslashish orqali amalga oshiriladi, ekoturizm resurslardan samarali foydalanish va ularni saqlashning samarali usulidir. Qurg'oqchil hududlarda ekotizimlarni aniqlash, yovvoyi tabiat resurslarini baholash va ularni muhofaza qilish ekologik jihatdan muhimdir. Ekoturizm orqali biologik xilma-xillikni saqlash usullari, ularning samaradorligi va resurslar kamayishining jamiyatga ta'siri muhokama qilinadi [4].

Cho'l o'simliklari qurg'oqchil sharoitga moslashib, suvni tejash mexanizmlariga ega. Asosiy o'simlik turlari: saksovul, qandim, yantoq, cherkez. Hayvonot dunyosi: jayron, cho'l tulkisi, qum mushugi, turli sudralib yuruvchilar. Bu biologik resurslar ilmiy turizm, ekologik kuzatuv va ta'limiy turizm uchun muhim ahamiyatga ega.

Tabiatni muhofaza qilish mablag'lari taqsimotida cho'llar ko'pincha e'tibordan chetda qoladi. Shu bilan birga, biologik xilma-xillikni saqlash imkoniyatiga ega bo'lgan ekoturizm bu hududlarda yetarli darajada rivojlanmagan. Aslida, ekoturizm tabiiy va madaniy resurslardan samarali foydalanib, mahalliy iqtisodiyotga ham hissa qo'shishi mumkin. Ayniqsa, muqobil daromad manbalari cheklangan hududlarda cho'l ekoturizmini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega [5].

Cho'l hududlari qadimiy sivilizatsiyalar rivojlangan hududlardan biri hisoblanadi. Qadimda Buyuk Ipak yo'lining ko'plab tarmoqlari aynan cho'l hududlaridan o'tgan. Cho'l hududlaridagi asosiy madaniy-tarixiy obyektlar:

qadimiy qal'alar, arxeologik yodgorliklar, qadimiy karvon yo'llari, etnografik qishloqlardir.

Atrof-muhitning yomonlashuvi, e'tiborsizlik va resurslar yetishmasligi sababli madaniy yodgorliklar yo'qolib ketish xavfi ostida. Asosiy tahdidlar tahlil qilinib, ularni himoya qilish uchun amaliy va strategik choralar taklif etiladi. Tabiatni muhofaza qilish, monitoring, mahalliy jamoa ishtiroki va raqamli texnologiyalarning ahamiyati ta'kidlanadi, shuningdek, xalqaro tajriba asosida eng samarali yechimlar aniqlanadi [6]. Cho'l hududlari tarixiy va madaniy markaz bo'lib, ularni tiklash hamda barqaror me'morchilikni rivojlantirish muhimdir.

Cho'l hududlari savdo, madaniyat va bilimlar chorrahasi sifatida muhim ahamiyatga ega. Shu bois, tashlab ketilgan landshaft va aholi punktlarini tiklash zarurligi ta'kidlanadi. Cho'l tarixi va me'morchiligi, ayniqsa yer me'morchiligining ekologik va barqaror jihatlari muhokama qilinadi [7]. Cho'l hududlari tarixiy va madaniy markaz sifatida muhim bo'lib, ularni tiklash va barqaror me'morchilikni rivojlantirish zarur.

Cho'l hududlari rekreatsion faoliyat uchun ham katta imkoniyatlarga ega. Bu hududlarda turli turistik faoliyat turlarini tashkil etish mumkin. Rekreatsion faoliyat turlari: cho'l safari, tuya sayohatlari, jeep-turlar, cho'l lagerlari, astronomik turizm, cho'l ekotizimining off-road va ralli sport turlarini aniqlash. Cho'l hududlarida atmosfera nisbatan toza bo'lgani sababli yulduzlarni kuzatish uchun qulay sharoit mavjud.

Cho'l manzarali hududlarining rekreatsiya qiymati sabab-oqibat diagrammasi asosida tahlil qilinib, ichki va tashqi omillarning bevosita hamda bilvosita ta'siri va ularning ishlash mexanizmi sifat jihatidan yoritiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, cho'l hududlarining rekreatsiya qiymati turistlar oqimi va sayohat xarajatlari bilan uzviy bog'liq. Rekreatsiya uchun sarflanadigan mablag'lar aholi jon boshiga iste'molda muhim ulushni egallaydi. Shuningdek, turizm mahsulotlarining xilma-xilligi va tabiiy rekreatsiya resurslarining boyligi ushbu qiymatning oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi [8].

Rekreatsiya talabi ish haqi bilan teskari, yashash joyi, yosh va yashash muddati bilan esa ijobiy bog‘liq ekanligi kuzatildi. Kirish to‘lovlari mavjudligi sabab tashrif buyuruvchilarning dam olish maskanlariga qiziqishi nisbatan pastroq bo‘ladi. Tadqiqot toza havo, tuproqni muhofaza qilish va barqaror ekotizimni saqlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, u iqtisodiy baholashni takomillashtirib, mahalliy hokimiyatlarni milliy bog‘larni samarali boshqarish zarurligi haqida xulosa chiqarishga undaydi[9].

Ekoturistik resurslarni tasniflash turizmni rejalashtirish va boshqarishda muhim ahamiyatga ega. Cho‘l ekoturistik resurslari quyidagi mezonlar asosida tasniflanadi.

Ommaviy va nazoratsiz ekoturizm tabiiy resurslarga salbiy ta’sirni kuchaytirdi. Shu sababli, ekoturizmni rivojlantirish va resurslarni muhofaza qilish masalasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. SWOT tahlil natijalariga ko‘ra, ekoturizm hududlariga tog‘lar, o‘rmonlar, yaylovlar, g‘orlar, daryolar va qishloq hududlari kiradi. Kuchli tomonlarga asoslangan strategiyalar quyidagilarni o‘z ichiga oladi: huquqiy hujjatlar va kadastr xaritalarini yaratish, jamoatchilik ishtirokini oshirish, mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirish va infratuzilmani yaxshilash. Bu strategiyalar ekoturizmni barqaror rivojlantirish va tabiiy resurslarni muvozanatli boshqarishga xizmat qiladi [10].

Aholi sonining ortishi va turmush ehtiyojlari resurslardan ortiqcha foydalanishga, natijada esa tabiiy yashash joylarining buzilishi hamda biologik xilma-xillikning kamayishiga olib keldi. Shu sababli, atrof-muhitni muhofaza qilish, turlarni va yashash joylarini tiklash bugungi kunda muhim vazifaga aylandi [11] Bugungi kunda tabiatni asrash, turlarni saqlash va yashash joylarini tiklash muhim vazifa sifatida qaralmoqda.

Ekoturizm aholi va sayyohlarning ekologik xabardorligini oshirib, barqarorlikni ta’minlaydi. Sayyohlar mahalliy aholi bilan muloqot qilib, madaniyatni o‘rganish va noyob ekotizimlarni kuzatish orqali boy tajriba orttirmoqda. O‘zbekistonning tog‘, cho‘l va tekisliklardan iborat xilma-xil tabiati

ekoturizm uchun katta salohiyat yaratadi. Bunday imkoniyatlar to‘g‘ri rivojlantirilib, xalqaro standartlarga moslashtirilsa, mamlakatga ijtimoiy, ekologik va iqtisodiy foyda keltiradi. Ikkilamchi ma’lumotlardan foydalanib, O‘zbekistonning tabiatga asoslangan turizm salohiyati ekoturizm tamoyillariga muvofiq tahlil qilindi. tabiiy resurslar O‘zbekistonda ekoturizmni rivojlantirishga va mamlakatga iqtisodiy hamda ijtimoiy foyda keltirishga imkon berishi ko‘rsatilgan [12]

**Natija va muhokama.** Yuqorida keltirilgan tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlari shuni ko‘rsatadiki. Cho‘l hududlari o‘zining noyob landshaftlari (qum barxanlari, toshloq tekisliklar, oazislar) bilan ekoturistlar uchun jozibador hudud ekanligi isbotlandi. Ayniqsa, ekstremal va sarguzasht turizmi uchun katta imkoniyatlar mavjud. Biologik xilma-xillik muhim resurs sifatida baholandi Cho‘l hududlarida uchraydigan endemik o‘simlik va hayvon turlari (saksovol, jayron, cho‘l tulkisi va boshqalar) ilmiy, ta’limiy va ekologik turizmni rivojlantirishda muhim omil ekanligi aniqlandi. Tarixiy-madaniy merosning ahamiyati yuqori Qadimiy qal’alar, arxeologik yodgorliklar va Buyuk Ipak yo‘li bilan bog‘liq obyektlar cho‘l hududlarining turistik qiymatini yanada oshirishi aniqlandi. Rekreatsion faoliyat turlari xilma-xilligi mavjud. Cho‘l safari, tuya sayohatlari, jeep-turlar, astronomik turizm kabi faoliyat turlari hududning rekreatsion salohiyatini oshirishi qayd etildi.

**Xulosa.** Cho‘l hududlari o‘zining noyob tabiiy landshaftlari, biologik xilma-xilligi va tarixiy merosi bilan ekoturizmni rivojlantirish uchun katta salohiyatga ega. Shu bilan birga, noto‘g‘ri tashkil etilgan turizm atrof-muhitga zarar yetkazishi mumkin, shuning uchun ekoturizmni barqaror boshqarish, tabiiy resurslarni muhofaza qilish va mahalliy aholi manfaatlarini hisobga olish zarur. GPS va transport texnologiyalari yordamida hududlarga kirish imkoniyati oshgani sababli, ekologik tartib va nazoratni kuchaytirish ham muhim hisoblanadi.

**Tavsiyalar.** Cho‘l hududlarida ekoturizmni rivojlantirishda eng muhim yo‘nalish — barqaror boshqaruv va ekologik muvozanatni saqlash hisoblanadi.

Shu sababli, turistik faoliyatni qat'iy tartibga solish, maxsus marshrutlar tashkil etish va nazorat tizimini kuchaytirish zarur. Bundan tashqari, mahalliy aholini ekoturizm jarayoniga faol jalb qilish orqali ularning daromadini oshirish va tabiiy resurslarni asrashga bo'lgan manfaatdorligini kuchaytirish lozim. Shuningdek, ekologik ta'lim va madaniyatni rivojlantirish, sayyohlar orasida tabiatga ehtiyotkorona munosabatni shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega. Umuman, cho'l hududlarida ekoturizmni rivojlantirish iqtisodiy foyda bilan birga tabiatni muhofaza qilish tamoyillariga asoslanishi kerak.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Tareq I. Alrawaf, Ismaila Rimi Abubakar, Nawaf M. Alshabibi, Khalid M. Al-Matar, Umar Lawa Dano, Eltahir Mohamed Abdalla Elhadi, Mohd Ahmadullah Farooqi, Faez S.Alshihri, Badran M.Alzenifeer, Muath Awadh Al-Odah. The distribution of ecotourism activities and potential consequences for the Saudi desert ecosystem. Journal of Arid Environments [Volume 213](#), June 2023, 104950
2. Kh. Sh. Zaburaeva, Ch. Sh. Zaburaev, M. B. Sedieva, A. A. Shaipova. Ecological Tourism in the Mountainous Regions of Russia: Essence and Development Prospects. Russian Journal of Earth Sciences
3. Mahdi Eshraghi, Mohd Ekhwan Toriman, Habibah Ahmad. Sustainable ecotourism in desert areas in iran: potential and issues. (Ekopelancongan Mapan di Kawasan Padang Pasir Iran: Potensi dan isu). Jurnal e-Bangi. Volume 5, Number 1, 38-51 , 2010.
4. M Al-Sayed, A Al-langawi. Biological resources conservation through ecotourism development. Journal of Arid Environments Volume 54, Issue 1, May 2003, Pages 225-236
5. Frederico Santarém, Filipa Paiva. Conserving desert biodiversity through ecotourism. Tourism Management Perspectives. [Volume 16](#), October 2015, Pages 176-178
6. Kosheterov Auezbay Abbasovich., Bekbosinov Jalgasbay Maksetbayevich. Measures to protect endangered historical monuments in karakalpakstan and their

most effective solutions. Tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur va innovatsion g'oyalar. vol. 2 no. 1 (2025). published 2025-06-11

7. Damluji, Salma Samar. Cities of the Desert Route: A network of shared knowledge. Akademik jurnal. Officina, 2024, 46-son, 12-bet

8. Hong Li, Jinlian Shi. Research on Influence Factors of Dynamic Recreation Value of Desert Scenic Spots. Springer nature Link. Chapter. First Online: 17 October 2014. pp 85–99

9. Sehresh Hena, Sufyan Ullah Khan, Abdul Rehman, Sumia Sahar, Inam Ullah Khalil, Jingdong Luan. Valuing and significance of eco-tourism parks across eastern arid regions of Pakistan. Research Article Springer nature Link. Published: 26 September 2020. Volume 28, pages 5900–5913, (2021).

10. Mosayeb Heshmati, Mohammad Gheitury, Samad Shadfar. Factors affecting possibility of ecotourism development and sustaining natural resources using SWOT approach in west Iran. International Journal of Geoheritage and Parks [Volume 10, Issue 2](#), June 2022, Pages 173-183

11. Wei-Ta Fang, Arba'at Hassan, Max Horng. Conservation and Restoration of Ecotourism Destinations. Springer nature Link. Chapter First Online: 06 February 2024 pp 163–194

12. Sh. B. Toyirova. Ecotourism in uzbekistan: issues affecting on future prospects. Вестник магистратуры. 2022. № 3-1 (126)